



UDK: 37.0

To'xtixon YULDASHEVA,

Katta o'qituvchi, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Andijon, O'zbekiston
E-mail: totiyoyuldasheva1968@gmail.com, ORCID 0009-0005-9074-543X

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, SH. Yuvashov taqrizi asosida

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF ENSURING GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation

The article analyzes the impact of gender stereotypes on the modern educational environment, their role in the process of personal development and gender socialization. It also covers the theoretical and practical aspects of ensuring gender equality in the educational system, the impact of gender stereotypes on students' professional choice, self-expression and social activity. Important areas of eliminating gender stereotypes and forming an inclusive educational environment based on modern pedagogical approaches are revealed.

Keywords: gender, gender stereotype, gender equality, educational environment, gender socialization, gender identity, pedagogy, inclusive education, androgyny, gender culture, equal opportunities, upbringing.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется влияние гендерных стереотипов на современную образовательную среду, их роль в процессе личностного развития и гендерной социализации. Также рассматриваются теоретические и практические аспекты обеспечения гендерного равенства в системе образования, влияние гендерных стереотипов на профессиональный выбор учащихся, самовыражение и социальную активность. Выявлены важные направления устранения гендерных стереотипов и формирования инклюзивной образовательной среды на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: гендер, гендерный стереотип, гендерное равенство, образовательная среда, гендерная социализация, гендерная идентичность, педагогика, инклюзивное образование, андрогиния, гендерная культура, равные возможности, воспитание.

TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHLTLARI

Annotatsiya

Maqolada gender stereotiplarining zamonaviy ta'lim muhitiga ta'siri, ularning shaxs rivojlanishi va gender ijtimoiylashuvi jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, gender stereotiplarining o'quvchilarning kasbiy tanlovi, o'zini namoyon qilishi hamda ijtimoiy faolligiga ta'siri yoritilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida gender stereotiplarni bartaraf etish va inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishning muhim yo'nalishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: gender, gender stereotipi, gender tengligi, ta'lim muhiti, gender ijtimoiylashuvi, gender identifikatsiyasi, pedagogika, inklyuziv ta'lim, androginlik, gender madaniyati, teng imkoniyatlar, tarbiya.

Kirish. Gender tengligi hamda gender stereotiplarning ta'lim muhitiga ta'siri bugungi zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb va kompleks yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, qadriyatlar tizimining yangilanishi hamda ta'lim subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurati ta'lim va tarbiya jarayoniga nisbatan an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogika fanida gender masalalari bugungi kunda istiqbolli va tez rivojlanayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shaxsning gender identifikatsiyasi, uning shakllanish mexanizmlari va xususiyatlarini o'rganish bilan birga ta'lim muhiti va pedagogik jarayonlarning erkak va ayollarga xos ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi o'rni ham chuqur tahlil qilish imkonini bermoqda. Ta'lim tizimi doirasida "gender ijtimoiylashuvi jarayonlari tobora muhim ahamiyat kasb etib bermoqda [2]". Bu jarayon shaxsning jamiyatda teng huquqlilik tamoyillarini anglashiga, ijtimoiy rollarni stereotipsiz qabul

qilishiga, atrofda qilargalarga nisbatan bag'rikeng munosabatni shakllantirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologiya, biologiya, tibbiyot hamda sotsiologiya kabi turli ilmiy sohalar vakillari erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida muayyan fiziologik, psixologik va xulq-atvor jihatidan farqlar mavjudligini qayd etadilar. Ushbu farqlar biologik va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi hamda ular shaxsning rivojlanish jarayonida tabiiy hol sifatida namoyon bo'lsada, biroq mazkur tafovutlarni ta'lim tizimida differensial yondashuvni keskinlashtirish yoki kamsituvchi munosabatlarni asoslash vositasi sifatida talqin qilinishiga yol qo'ymaslik kerak. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida har bir individning imkoniyatlari uning jinsiy mansubligidan qat'i nazar teng va keng ko'lamlil rivojlanish imkoniyatlariga ega ekani e'tirof etiladi. Mavjud biologik yoki psixologik farqlarni mutlaq belgilovchi omil emas, balki ularni shaxsning individual xususiyatlar sifatida ahamiyatlidir.

Jins va gender muammolariga oid falsafiy va ijtimoiy konsepsiyalarda erkaklik va ayollik mohiyati turlicha talqin etiladi. Ayrim yondashuvlarda erkak va ayolga xos sifatlar qarama-qarshi

qutblar sifatida tasvirlansa, boshqa nazariyalarda esa ularning o'zaro uyg'unligi va bir-birini to'ldiruvchi xarakteri ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvlar gender munosabatlarini yanada kengroq va kompleks tarzda anglashga imkon yaratadi. Xususan, "androginlik konsepsiyasi shaxsni yagona, yaxlit tizim sifatida talqin etadi [3]". Bu jarayonda an'anaviy ravishda erkaklarga yoki ayollarga xos deb hisoblangan psixologik va xulqiy xususiyatlarning uyg'unlashishi mumkinligini asoslaydi. Bu yondashuv zamonaviy psixologiya va pedagogikada muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning gender stereotiplardan xoli, erkin va ko'p qirrali rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Uzoq tarixiy davr mobaynida jamiyatda erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy rollariga oid barqaror va an'anaviy tasavvurlar shakllanib kelgan. Mazkur tasavvurlarga ko'ra, ayol ko'proq oila, farzand tarbiyasi va xonadon farovonligini ta'minlovchi asosiy shaxs sifatida talqin qilingan bo'lsa, erkak esa jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va kasbiy hayotida faol ishtirok etuvchi yetakchi subyekt sifatida qaralgan. Bunday ijtimoiy stereotiplar vaqt o'tishi bilan madaniy me'yorlarga aylanishi natijasida ta'lim tizimi va tarbiya jarayoniga ham singib ketgan. Natijada, ta'lim muassasalarida "gender rollarining qat'iy belgilanganishi stereotipik fikrlashning shakllanishiga zamin yaratadi [4]". Bu esa ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar tamoyilining to'liq amalga oshirishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

"Zamonaviy pedagogika gender stereotiplarini bartaraf etishni muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etadi [5]." hamda bunday cheklovchi yondashuvlarni bartaraf etishni o'z oldiga maqsad qilib oladi. Chunki ijtimoiy rollarning qat'iy va biryoqlama taqsimlanishi shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini cheklab, uning ichki salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gender stereotiplari ta'lim oluvchilarning o'zini ifoda etish erkinligini cheklashi, ularning qobiliyat va qiziqishlarini genderga bog'liq ravishda noto'g'ri yo'naltirishga olib kelishi, shaxsni rivojlanish jarayoniga hamda jamiyatning umumiy intellektual va kasbiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratish, stereotiplardan xoli pedagogik muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Psixofiziologiya va psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar va qizlar axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash, hissiy reaksiyalarni ifodalash, motivatsion yo'nalish hamda xulq-atvor strategiyalari jihatidan ma'lum darajadagi farqlarga ega bo'ladi. Ushbu farqlar ko'pincha biologik rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy muhit ta'siri hamda tarbiya jarayonining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Ba'zi ilmiy kuzatuvlarga ko'ra, qiz bolalarda verbal tafakkur, muloqotga kirishuvchanlik, emosional sezgirlik hamda ijtimoiy normalarga moslashuvchanlik nisbatan yuqoriroq namoyon bo'ladi. O'g'il bolalarda esa harakat faolligi, muammolarni amaliy yechishga yo'naltirilganlik hamda vizual-mekansal axborotni tezroq idrok etish tendensiyalari kuzatilishi ehtimol qilinadi.

Har bir individning psixologik rivojlanishi ko'plab omillar - irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim sharoiti va shaxsiy tajriba bilan belgilanadi. Shu sababli, genderga asoslangan umumlashtirishlar har doim ham real individual farqlarni to'liq aks ettirmaydi. Mavjud individual va psixofiziologik farqlarga qaramasdan, zamonaviy ta'lim tizimida ko'pincha standartlashtirilgan yondashuv ustunlik qiladi.

Natijada, bu holat nafaqat akademik natijalarga, balki o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu bois zamonaviy pedagogika individual yondashuv, differensial ta'lim va inklyuziv ta'lim tamoyillarini rivojlantirish orqali har bir o'quvchining imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga intilmoqda[6].

Ta'lim tizimi, xususan pedagogika doirasida gender masalalarini o'rganish bugungi kunda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu sohada olib borilayotgan izlanishlar ta'lim jarayonining

nafaqat didaktik, balki ijtimoiy-madaniy jihatlarini ham chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Pedagogikadagi gender tadqiqotlari odatda ikki asosiy ilmiy yo'nalishda rivojlanadi. Birinchi yo'nalish pedagogikani gender munosabatlarini shakllantirish, rivojlantirish va ularni ilmiy asosda loyihalashtirishga xizmat qiluvchi bilimlar tizimi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda ta'lim jarayoni gender identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarning shakllanishida muhim omil sifatida o'rganiladi. Ikkinchi yo'nalish esa pedagogika fanining ilmiy predmet sohasini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, unda gender komponenti ta'lim nazariyasi va amaliyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu yondashuv pedagogik jarayonni yanada kompleks va ko'p qirrali tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, gender pedagogikasi ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi, shuningdek, shaxsning ijobiy ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholanadi.

Faylasuf N. A. Berdiyayevning qarashlariga ko'ra, jins (gender) masalasi insonning dunyoqarashi va mavjudligining muhim ontologik asoslaridan biri hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, inson faqat biologik mavjudot sifatida emas, balki ma'naviy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham jinsiy identifikatsiyaga ega bo'lgan murakkab shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, jins insonning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va hayotga bo'lgan munosabatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Psixofiziologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar erkak va ayol organizmlarining funksional jihatdan ma'lum biologik va neyropsixologik farqlarga ega ekanligini ko'rsatadi. V.A.Geodakyan tomonidan ilgari surilgan evolyutsion nazariyaga ko'ra, ayol jinsi ko'proq biologik barqarorlik, genetik saqlanish va adaptiv muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, erkak jinsi evolyutsion jihatdan yangilik kiritish va o'zgaruvchanlikni ta'minlashga moyil hisoblanadi.

Mazkur nazariy yondashuvlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, qizlar va o'g'il bolalarning axborotni qabul qilish jarayoni, motivatsion tizimi, fikrlash uslubi hamda xulq-atvor modellari ma'lum darajada farqlanishi mumkin. Biroq ushbu farqlarni mutlaq va universal qonuniyat sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to'liq asoslanmagan bo'lib, har bir shaxsning individual xususiyatlari ta'lim jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[7].

Amaliy pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy umumta'lim tizimi ko'pincha o'quvchilarning genderga oid individual psixofiziologik xususiyatlarini yetarli darajada inobatga olmaydi. Ta'lim mazmunining texnik va tabiiy fanlarga ko'proq yo'naltirilganligi ayrim hollarda o'g'il bolalarning kognitiv qiziqishlari va faoliyat yo'nalishlariga nisbatan mos kelishi mumkin. Biroq ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari, xususan, yuqori darajadagi intizom talablari, uzoq muddatli diqqatni jamlash, sabr-toqat va muntazam ishlash kabi psixologik yuklamalar ko'pincha qiz bolalarda nisbatan barqarorroq namoyon bo'ladigan xulqiy va psixofiziologik xususiyatlarga yaqinroq moslashgan tarzda shakllanganligi kuzatiladi.

Shu bilan birga, bunday kuzatuvlarni qat'iy gender determinatsiyasi sifatida talqin qilish to'g'ri emas, chunki har bir o'quvchining rivojlanishi individual psixologik, ijtimoiy va biologik omillar uyg'unligi asosida shakllanadi. Shu bois ta'lim jarayonida yagona yondashuvdan ko'ra differensial va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik yondashuvga ko'ra, gender insonning tug'ma biologik xususiyatlaridan ko'ra, ko'proq jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy rol sifatida talqin etiladi. Jamiyat erkak va ayollardan muayyan xulq-atvor modellari, ijtimoiy funksiyalar va madaniy me'yorlarga mos faoliyatni kutadi. Ushbu jarayon natijasida "ideal erkak" va "ideal ayol" kabi normativ stereotipik obrazlar shakllanadi.

Mazkur ijtimoiy konstruksiyalar yosh avlodning gender identifikatsiyasi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularning o'zini anglash, kasbiy yo'nalish tanlash va ijtimoiy rollarni qabul qilish mexanizmlarini ma'lum darajada belgilab beradi. Natijada, stereotiplar nafaqat individual rivojlanishga, balki ta'lim tizimidagi

teng imkoniyatlar tamoyilining amalga oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi[8].

Pedagogik tadqiqotlarda so'nggi yillarda "gender", "gender identifikatsiyasi", "gender tarbiyasi" hamda "gender xulqi" kabi tushunchalar keng ilmiy muomalaga kirib kelmoqda. Ushbu kategoriyalar ta'lim jarayonini faqat didaktik emas, balki ijtimoiy-psixologik tizim sifatida ham o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda gender biologik asoslar va ijtimoiy ta'sirlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan murakkab va ko'p qatlamli tizim sifatida baholanadi. Bugungi ta'lim amaliyotida esa gender farqlarini yetarli darajada inobatga olish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. O'quv dasturlari va metodik yondashuvlar ko'pincha standartlashtirilgan shaklda ishlab chiqilib, barcha o'quvchilar uchun bir xil talablarga asoslanadi. Bunday yondashuv ayrim hollarda o'quvchilarning individual kognitiv uslublari hamda genderga xos psixologik xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin[9].

Xususan, ta'lim jarayonida verbal (og'zaki) yondashuvlar ustunlik qilganda, bu usul ko'proq verbal tafakkur va kommunikativ faollik rivojlangan o'quvchilar, jumladan, qizlar uchun nisbatan qulayroq bo'lishi ehtimoli mavjud. Aksincha, o'g'il bolalarda ko'proq vizual, amaliy va faol harakatga asoslangan o'quv strategiyalariga moyillik kuzatilishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida genderga sezgir yondashuvlarni joriy etish o'quv samaradorligini oshirish, shuningdek, har bir o'quvchining individual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Gender ta'limining muhim pedagogik shartlaridan biri o'qituvchining gender savodxonligi hamda uning individual pedagogik uslubga ega bo'lishidir. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning biologik, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini ham hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etishi zarur. Bunday yondashuv har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[10]. Gender yondashuvi asosida ishlab chiqilgan didaktik topshiriqlar, metodik tavsiyalar hamda o'quv materiallari o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Bunday ta'lim modelida o'quvchilarning axborotni qabul qilish uslublari ham hisobga olinadi. Xususan, qizlar va o'g'il bolalarda vizual, audial hamda kinestetik idrok kanallari turlicha darajada ustun bo'lishi mumkin bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuv bu kanallarning uyg'un holda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Gender ta'limining asosiy maqsadi faqat erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish emas, balki har bir shaxsning individual imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyatda o'zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Ushbu jarayon gender tenglik tamoyillarini mustahkamlash orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham xizmat qiladi [11].

Jamiyatda mavjud gender stereotiplarini bartaraf etish insonparvarlik, tenglik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi hamda har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat biologik farqlar, balki ijtimoiy omillar hamda individual psixologik xususiyatlarni kompleks tarzda hisobga olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Gender ta'limi doirasida erkaklik va ayollikka xos sifatlarning qarama-qarshi emas, balki o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlar sifatida shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, o'zaro hurmat, hamkorlik va tenglik madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[12]. Bu esa o'z navbatida jamiyatda mavjud stereotipik qarashlarning kamayishiga, shaxsning erkin va ongli rivojlanishiga hamda ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, gender ta'limi o'quvchi, talabalarining individual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Har bir shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni differensial va inklyuziv yondashuvni kuchaytiradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi[13]. Umuman olganda, gender ta'limi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib, u inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda barqaror taraqqiyotga erishishda muhim o'rin tutadi. Меренков А.В so'zlari bilan aytganda: "... ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash demokratik va adolatli jamiyat qurishning muhim omili hisoblanadi [14]."

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib gender pedagogikasining nazariy va metodologik asoslarini yanada rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda yangi innovatsion ta'lim modellarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu bilan birga, turli fanlar - psixologiya, sotsiologiya, biologiya va pedagogika doirasida gender yondashuvni tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Клецина И.С. Гендерная психология. – СПб.: Питер, 2019. – 496 с.
2. Кон И.С. Пол и гендер. Мужчина в меняющемся мире. – М.: Время, 2019. – 704 с.
3. Bem S.L. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – New Haven: Yale University Press, 2023. – 256 p.
4. Sorokin P.A. Social and Cultural Dynamics. – New York: American Book Company, 2024. – 742 p.
5. Мацумото Д. Психология и культура. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2022. – 416 с.
6. Yuldasheva, To'tixon Yakubovna; Gender tengligi - zamonning yakunlanmagan vazifasi.// Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar., ISSN:3030-3958., 2025-yil 8-son, - 629-636 b., (13.00.00-№8)
7. Yuldasheva, To'tixon Yakubovna., A gender approach to the professional training of higher education students. // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 8-son, B-593-599., ISSN: 3030-3958., (13.00.00-№9)
8. Юлдашева, Тутихон Якубовна., Talabalar o'rtasida gender adolatini qaror toptirishda tarbiya va ijtimoiy faoliyatning metodik uyg'unligi.// Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 9/2025., 187-194, ISSN: 3060-527X
9. Yuldasheva, Totixon Yakubovna., A Gender Approach to the Professional Training of Higher Education Students. // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, USA, 4 (7),164-169., 2025-yil., ISSN 2835-3579., <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3492/3558>
10. Юлдашева, Тутихон Якубовна, Гендерные стереотипы в образовании как препятствие развития общества. // Miasto Przyszłości, Journal from Polska, ISSN 2544-980X., Vol. 60 (май., 2025). -P- 293-295 с., www.miastoprzyslosci.com
11. Юлдашева, Тутихон Якубовна., Современный подход к вопросам гендерного равенства. // "Экономика и социум", Россия, -№10 (125)-2 2024, ISSN 2225-1545., C-1050-1234, www.iupr.ru
12. Юлдашева, Тутихон Якубовна; Сотрудничество путь к будущему. // Universum: психология и образование., -электронный научный журнал., №5 (131), C-55-59., май, 2025- Москва., URL: <https://7universum.com/ru/psy/archive/item/19811>. DOI:10.32743/UniPsy.2025.131.5.19811
13. Yuldasheva, Totixon Yakubovna., Transformation of education. the necessity of implementing gender education in Uzbekistan., Symposium on advanced studies and future directions., "Symposium on advanced studies and future Directions" conference, ISBN: 978-1-291-88066-3., Spain., Issue 1, Volume 6., May 2026, P-266-271.
14. Меренков А.В. Гендерная педагогика: теория и практика. – Екатеринбург: УрГУ, 2023